TURIZMNING IQTISODIYOT RIVOJIGA TA'SIRINI OSHIRISH VA INVESTITSIYA MUHITIDAN UNUMLI FOYDALANISH

Obidova Ziyoda
Toshkent moliya institut magistranti

Keyingi yillarda Oʻzbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, koʻrsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.Tizimli ishlar turistlar oqimini oshirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq boʻlindi. Masalan, eng liberal viza rejimlari reytingida Oʻzbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi oʻrinni egalladi.

Joriy yilning oʻtgan olti oyi mobaynida yurtimizga 3 million nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davrida 2,3 million nafarni tashkil etgan boʻlib, 31 foizga oshdi. Natijada turistik xizmatlar eksporti 28 foizga oshib, 590,5 million dollarni tashkil etdi.Bunday tendensiya va miqdoriy natijalar ham turizm infratuzilmasi ob’ektlari rivojiga ta’sir koʻrsatmoqda. Jumladan, xorijiy turistlar mamlakatimizda uzoqroq vaqtga qolayotganligi tufayli ularni joylashtirish bilan bogʻliq masalalar koʻpaydi, bu esa turizm infratuzilmasi ob’ektlaridagi bandlikka ham ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda. Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning oʻtgan davrida 364 yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetgan.

Tadbirkorlar tomonidan turizm sohasiga 191,7 milliard soʻm investitsiyalar kiritilishi evaziga 1 ming 142 ta yangi ish oʻrni yaratildi. Hozirgi kunda 23 ming xonaga ega jami 1 ming 46 ta sayyohlar va mehmonlarni qabul qiladigan joylar faoliyat koʻrsatmoqda. Shuning 107 tasi joriy yil birinchi yarmida barpo etildi.

Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning oʻtgan davrida 364 ta yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetkazildi.

Erishilgan bunday koʻrsatkichlarning zamirida turizm sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosining toʻliq ta’minlanayotganligini hamda yaqinda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻrisida”gi qonunining hayotga tatbiq etilayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbekistonda sayyohlar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida 26 ta investitsiya loyihalariga qoʻl urilgan. Oʻzbekistonda 1,1 mlrd dollar miqdoridagi 26 investitsiya loyihalari boʻyicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalar mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulayliklar va zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan boʻlib, bu boʻyicha mamlakatda

mehmonxonalar quriladi va rekonstruktsiya qilinadi, sanatoriyalar, sog‘lomlashtirish komplekslari quriladi, sport-rekreatsiya zonalari yaratiladi.

Bundan tashqari turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonga AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Indoneziya, Rossiya kabi mamlakatlardan 30 OAVning 160 dan ortiq vakillari tashrifi uyushtirilgan. Shuningdek, sayyohlarni jalb etishda turli ommaviy-madaniy ko‘ngilochar tadbirlarga ham e’tibor berilmoqda.Hozirda madaniy ko‘ngilochar tadbirlarni muvofiqlashtirish maqsadida Qo‘mita tuzilmasida Kongress va ko‘rgazmalar markazi tashkil etilmoqda.

Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo‘shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga “Turizm sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishonini ta’sis etish taklifining qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimizni, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O‘zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo‘ladi..

Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Ulug‘bek A’zamov va «JTA International Holding» Qatar investitsiya xolding kompaniyasi prezidenti Amir Ali Salemi o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ma’lum qilishicha, tadbirda Turkiyaning «Sarikoc Holding» va «Pyramid Group» kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etgan.

Muzokara doirasida O‘zbekiston sayyohlik salohiyati, mehmonxonalar qurish va boshqarish, restoranlar, golf klublari, dam olish maskanlari, mavzuli bog‘lar, havo-logistika markazlari va boshqalarni o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalari taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, turizm sohasidagi xorijiy investorlar uchun mavjud imtiyoz va preferensiyalar, ushbu sohada eng qulay biznes sharoitlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida ma’lumot berildi.«JTA International Holding» rahbariyati Bo‘stonliq va Zomin tumanlarida tog‘ va qish turizmi yo‘nalishida investitsiya kiritish va infratuzilma yaratish, golf klublari va sport turizmi loyihalarida ishtirok etish istagini bildirdi.

O‘z navbatida, Amir Ali Salemi Qatarning yetakchi investitsiya kompaniyalari ishtirokida Doha shahrida O‘zbekistonning investitsiya va turizm salohiyati haqida biznes-uchrashuvni tashkil etish va O‘zbekiston bilan Qatar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozlarni yo‘lga qo‘yish masalalarini birgalikda ishlab chiqishga kelishib oldi.

Joriy yilda Toshkent xalqaro investitsiya forumi-2022 bo’lib o’tdi Ushbu forumda sayyohlik sektoriga investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari haqida muhokama etildi

2014 – 2019-yillarda O‘zbekistonga keluvchi sayyohlar soni 1,9 milliondan 6,9 millionga yetdi. 2019-yilda mamlakatda global o‘zgarishlarni boshlab bergan tayanch hujjatlardan biri – 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi va unda ishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi:

- turizm faoliyati sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- xalqaro me’yor va standartlar implementatsiyasi;
- infrastrukturani rivojlantirish va O‘zbekiston mehmonlari uchun qulay muhitni shakllantirish;

- turistik mahsulot va xizmatlar diversifikatsiyasi, mamlakat imijini sayohat qilish va dam olish uchun xavfsiz joy sifatida mustahkamlash.

Turizm nafaqat daromad keltiradi, balki odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Bu sohaga ayollarni jalb qilish muhim. Asosiy maqsad – byurokratik cheklovlarni olib tashlash, O'zbekiston — Osiyoda o'z drimlaynerlari yo'nalishlarni ochuvchi samolyotlariga ega bo'lgan birinchi mamlakat. 2017-yildan boshlab Nyu-Yorklik yo'lovchilar ularda to'g'ridan-to'g'ri parvozlarni amalga oshirmoqda. Ekspertlarning baholashicha, turistik xizmatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri sarflangan har bir dollar turdosh sohalarda taxminan qo'shimcha uch dollarni keltiradi. Ko'plab xorijlik sayyohlar uchun birdaniga Osiyodagi bir nechta mamlakatga tashrifni ko'zda tutuvchi turlar qiziq bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda sayyohlik sohasini innovatsiya va raqamlashtirish orqali o'zgartirish zaruriyati mavjud. Egallanmagan imkoniyat sifatida endi rivojlanayotgan agro va etno turizm kabi bozor segmentlarini rivojlantirish lozim. Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur. Bunda, hukumatning roli xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta'minlashdir. Mavjud muammolarni tezkor va sifatli yechish pandemiyadan keyingi davrda O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.